

JEK LONDON HIKOYALARIDA METAFORA

Farg'ona davlat universiteti
Filologiya fanlari doktori, dotsent
Qahhor Yo'lchiyev
Farg'ona Davlat Universiteti,
Lingvistika, ingliz tili 2-kurs magistranti
Xalilova Ra'noxon Qahramonjon qizi
Ranoxonxalilova1@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqola asosan Jek London, uning idiositili, kasbiy mahorati va uning asarlaridagi qo'llangan ko'chim turi, metafora, haqida keng ma'lumot berib, ushbu ko'chim turiga namunalar keltiriladi, shuningdek, maqola qisqacha metafora tushunchasiga ham to'xtalib o'tadi. Misollar Jek London asarlaridan olingan.

Kalit so'zlar: metafora, idiositil, ko'chim, hikoya.

Abstract. This article mainly gives extensive information about Jack London, his idiosyncratic style, professional skills and the type of metaphor used in his works, examples of this type of metaphor are given, and the article briefly gives short information on the concept of metaphor. Examples are taken from the works of Jack London.

Key words: metaphor, idiositile, story.

Agar ko'chim faqat o'zbek tilida mavjud desak qattiq adashamiz. Chunki har bir til o'ziga xos baland-pastliklardan, shuning bilan birga mubolag'alardan, badiiy san'at va ko'chma ma'noli so'zlardan iboratdir. Ingliz tili ham bundan chetda qolmaydi. Nafaqat kundalik turmushida va balki badiiy hayotida ham bu jarayon o'z aksini topadi. Jek London hikoyalarida ushbu lingvistik fenomeni kuzataylik:

Jek Londonning adabiy faoliyati 1893-yildan boshlangan. Yozuvchining ko'pgina hikoya to'plamlari, qator qissa va romanlari shimol mavzusida yozilgan „Bo'ri bolasi“, „Izg'irin bolalari“, va boshqalar). „Qor qizi“, „Hayot uchquni“, „Shimoliy Odisseya“,

„Insonga ishonch“, „Qadim dengizchilardak“, „Chandiqli odam“, „Oltin dara“ va boshqa sarguzasht asarlar muallifi. Yozuvchining barcha asarlari tabiat bilan uyg'unlashib ketgan, tabiatda sodir bo'ladigan voqealarning o'ziga xos hayotini tasvirlagan.

Londonning ijodida Gerbert Spenser, Fridrix Nitsshe falsafiy ta'limotlarining ta'siri seziladi. „Martin Eden“ roman-biografiyasi, „Hayotga muhabbat“, „Hayot qonuni“ hikoyalarida bosh qahramonning paymonasi to'lgan chog'da ham „yashashga ishtiyoqi“ni aks ettirgan. Uning individualizm ta'sirida yozilgan mazkur romanida g'arbcha „barkamol inson“, ya'ni „superman“ nazariyasi ham ilgari surilgan.

Ushbu asarlarning deyarli barchasi o'zbek tiliga tarjima qilingan. Quyida Jek Londonning „Hayot qonuni“ hikoyasidan parcha keltirilib, tahlil qilinadi.

Keksa Koskushning butun vujudi quloqqa aylandi. Uning ko'zdan qolganiga ancha bo'lgan, lekin quloqlari avvalgidek sezgir, tiq etgan tovushni payqaydi.

Yuqoridagi gapdagi **vujudi quloqqa aylandi** so'z birikmasi metaforaning asl ko'rinishi bo'lib, inson diqqatini jamlagani bo'rttirib ifoda qilingan.

– *Men yaxshiman. Xuddi shoxda bazo'r ilinib turgan yaproqqa o'xshayman, to'kilishim uchun shamolning sekingina esishi kifoyi. Ovozim kampirshoning ovozigga o'xshab qoldi, ko'zlarim esa burungidek oyoqlarimga yo'l ko'rsatmay qo'ygan. Qadamlarim og'ir, holdan toyganman. Lekin hammasi joyida...*

Ushbu jumlada inson umrining oxirlab qolganini ushbu jummlar bilan ifoda qilmoqda. Yaproq ham shoxdan uzilib yerga tushadi, inson ham umrini yashab qabrga kiradi. Aynan shu jumla hayot qonuni. Ushbu hikoyaning bor mazmuni ham shu jumlada aks etgan. Shuning uchun ham hikoya nomi „Hayot qonuni“ deb nom olgan menimcha.

*Quruq novdani avaylabgina olovga tashlar ekan, Koskush yana xayolga cho'mdi. Hayot qonuni tirik jonzotlarning hammasiga birdek tegishli. Sovuq tushishi bilanoq chivinlar g'oyib bo'ladi. **Mitti olmaxon jon berish** uchun changalzorga kirib ketadi. Qari **quyon holdan toyadi**, endi u avvalgidek dushmanlaridan qocha olmaydi. **Keksa ayiqning ko'zlari xiralashib**, harakatlari beso'naqay tortadi va bir kuni akillagan itlar to'dasi uni quvib yetadi.*

Yuqorida ajratib ko'rsatilgan so'zlar, aslida, inson shaxsiyatini ifodalaydi, insonning kechinmalarini, hatti-xarakterini tasvirlaydi, biroq bu yerda tabiat va inson, undaki borlik umulashmoqda, chunki inson ham tabiatning bir bo'lagi ekanligi ta'kidlanmoqda.

Umuman olganda, baribir emasmi? Baxtli tasodifro'y berib, yana bir necha yil yashadi ham deydik, ammo to'q kundan och kuni ko'p bo'lishi turgan gap. Bir kun emas bir kun o'lim otliq mangu to'yimas yuho baribir uni quvib yetadi...

Inson jon bermog'i uchun ajal uni quvib yetishi shart emas, taqdirida yozilgan bo'lsa, bir lahzada bu dunyodan ketmog'i mumkin. Ushbu jumla ham aynan taqdirga ishora qiladi, uning haqligini qadrli o'quvchiga yanada aniqroq ko'rsatmoqchi bo'ladi.

Juda ko'p yozuvchilar metaforadan keng foydalanishadi, biroq Jek Londonning asarlaridagi ushbu ko'chim turi o'zining haqiqiyiligi va tabiatga uyg'unligi bilan ajralib turadi. Qolgan barcha asarlardan ham bilishimiz mumkinki, Jek Londonning idiositili chuqur metaforaga asoslangan va barchaning qalbiga va onggiga birdek yetib boradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. <https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/jahon-nasri-onlayn-antologiyasi/jek-london-1876-1916-aqsh/jek-london-hayot-qonuni-hikoya>
2. „Jack London“. *Encyclopædia Britannica*. Qaraldi: 4-may 2012-yil.
3. (1910) "Specialty of Short-story Writing, " *The Writer*, XXII, January-December 1910, p. 9: „There are eight American writers who can get \$1000 for a short story—Robert W. Chambers, Richard Harding Davis, Jack London, O. Henry, Booth Tarkington, John Fox, Jr., Owen Wister, and Mrs. Burnett.“ \$1,000 in 1910 dollars is roughly equivalent to \$Andoza:Inflation today
4. Swift, John N. „Jack London's 'The Unparalleled Invasion': Germ Warfare, Eugenics, and Cultural Hygiene.“ *American Literary Realism*, vol. 35, no. 1, 2002, pp. 59-71. Andoza:JSTOR.
5. (1910) "Specialty of Short-story Writing, " ("Qisqa hikoya yozish sohasi) *The Writer*, XXII, Yanvar-dekabr, 1910, 9-bet